

INTERFAOL O’QITISH HAQIDA

Choriyeva Nargiza Abriy qizi

Kasbi tumani 24 – maktab informatika va AT fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Interfaol metodlar bilan ishlash dars sifatining samadorligini oshirishga hamda o’quvchilarni faollikka chaqiruvchi metoddir.

Kalit so’zlar: Interfaol o’qitish, mustaqil fikrlash, pedagogik mahorat, interaktiv, metod, guruhlar bilan ishlash, mahorat, babs-munozara

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Shu o’renda “Interaktiv” dars metodini “interfaol” deb chala tarjimasini aytish mazmunan xato ekanligiga e’tiboringizni qaratmoqchiman. “Interaktiv” so‘zi qo’shma so‘z bo‘lib, agar tarjima qilish zarur bo‘lsa, unda har bir so‘zni tarjima qilish kerak. “Interaktiv” inglizcha “Interactive” so‘zidan olingan bo‘lib, “o‘zaro harakat va ta’sirlanish” degan ma’noni anglatadi. Interaktiv metod biror faoliyat yoki muammoni o‘zaro muloqotda, o‘zaro babs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o’quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o’rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. O’qitishning interaktiv usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchilarining soni va imkoniyatlari, o’quv muassasasining o’quv-moddiy sharoiti, ta’limning davomiyligi, o’qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e’tiborga olinadi.

Interfaol metodlar bu- o’quvchi va o’qituvchi hamda o’quvchilar o‘zaro birgalikdagi harakatdir. Interfaol metodlarda o’qitish o’quvchilardan yuqori faollikni, olingan ma’lumotlarni to’la anglashda ijodiy yondashuvni talab etadi. Interfaol o’qitishning asosiy mezonlari bu- norasmiy munozaralarni o’tkazish, o’quv materiallarni erkin ifodalash, ma’ruzalar sonini kamaytirish, o’quvchilarni tashabbuskorlikka chorlash, jamoaviy izlanuvchanlikni talab qiladigan guruhiy vazifalar va yozma ishlarni bajarishdir.

O’zlashtirilayotgan tajribani to’g’ridan-to’g’ri o’quvchilarga o‘zaro ta’sir harakati orqali yo’naltirish, interfaol metodlarni qo’llab o’qitishning asosi bo‘lib, bunday yondoshuvda o’kituvchi tayyor bilimlarni bermaydi, balki o’quvchilarni mustaqil izlanishga chorlaydi.

Interfaol o’qitishda o’qituvchi va o’quvchilar o’rtasidagi o‘zaro ta’sir harakati va o’zgarishlarni qo’llash interfaol o’qitishda mo’ljallanadi. O’qituvchi faolligi o’quvchilar faolligi oldida o’z o’rnini bo’shatib beradi, o’qituvchining asosiy vazifasi

(fasilitatorlik) bu- o’quvchilarni yo’naltirish va mavzuni umumlashtirish hamda shart – sharoit yaratish demakdir.

Birgalikda va mustaqil o’qitish muammosi ko’pgina allomalar tomonidan o’rganilgan bo’lib, quyida bir qancha mutafakkirlarning fikrlarini keltirmoqchimiz: ...Inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug’ilishidan mavjud. Lekin aqliy bilimi, ma’naviyligi, ruhi, axloqiy hislatlari... boshqa insonlar bilan muloqotda vujudga keladi, insonlar o’zaro faoliyati natijasida ularga erishadi.

Abu

Nasr

Forobiy

... Doim bir xil narsaga qarayverish malollik va sabrsizlikka olib keladi. Ta’lim har xil usullarda uyuştirilganda o’quvchi turli gullar ochilgan bog’da yurganga o’xshaydi. Ularga qiziqadi, ko’rishni istaydi.

Abu Rayxon Beruniy

...Dolzarb muammo va vazifalarni echishda muloqot, faoliyat va hamkorlikdagi harakat, ya’ni jamoatchilik yo’li orqali chuqur bilim va tushunchalar olinadi. Lev Semyonovich Vigotskiy (Rossiya)

...Bolalar o’zlari kashf etgan narsalar to’g’risidagina haqiqiy tushunchaga ega bo’ladilar, biz esa doimo ularga nimalarnidir tez o’rgatishga harakat qilganimizda, ular bu narsalarni yangidan kashf etishlarini tushunib qolamiz. Jan Piaje (SHveysariya)
...Ta’lim- bu jamoaviy jarayon.

Ta’lim –bu rivojlanish. Ta’lim- hayotga tayyorgarlik emas, ta’lim – bu hayotning o’zi demakdir. Djon Dyui (Amerika)

...Aql-zakovat –bu harakatsiz, o’zgarilmaydigan jarayon emas... Insonning aql-zakovati umr davomida doimiy rivojlanishda bo’ladi. Aql-zakovatni har qanday yoshda ham yaxshilash mumkin.

Govard Gardner

Demak, interfaol o’qitish o’quvchining o’rganish jarayonini boyitadi, ya’ni:

- o’quvchilar orasida kognitiv axborotlar to’plamini beradi;
- o’quvchilarda o’quv materialni o’rganishlariga ishtiyoq uyg’otadi;
- o’quvchilarning shaxsiy bilimlari qo’llaniladi;
- qayta axborotni uzatadi;
- sinfdan tashqari erishiladigan muvaffaqiyatlarni ta’minalash uchun zaruriy ijtimoiy va guruxiy bilimlar rivojlantiriladi;
- turli xil guruhlar o’rtasida do’stona muhitni yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar:

1. Tolipov O’.Q. Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. –T.: «Fan», 2006, 150 bet 2 Asranov S. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularning imkoniyatlari. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning tashkiliy va ilmiy-metodik muammolari. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. –T.: 2005, 41-bet.